Yashil iqtisodiyot – barqaror taraqqiyotga olib boruvchi yo'l.....	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
Научно-теоретические основы экономической и эколого-экономической эффективности предприятий горнодобывающей промышленности.....	930
Раматов Зафарбек Жуманиязович	
Xitoyda eksport faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....	938
D.E.Qarshiev	
Kichik sanoat zonalarida investitsion jozibadorlikni oshirishni investitsion faollikka ta'siri.....	943
Mannapova Shaxnoza Elshodovna	
Mahalla institutining samaradorligi tahlili: so'rovnoma yondashuvi	947
Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Формирование человеческого капитала в условиях демографических изменений: опыт и перспективы для узбекистана.....	955
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
Farmasevtika kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish yo'nalishlari	962
Baxrombek Bobojonov	
“Hududlarda sug'urtaga bo'lgan talabning ekonometrik tahlili”	967
Bekberganova Mohira Ravshonbekovna	
O'zbekiston va xalqaro amaliyotda raqamli marketing vositalaridan foydalanish: muammolar va yechimlar	973
Uzoqova Dilnoza Yusuf qizi	
Условия эксплуатации и экологическая безопасность автотранспортной системы на основе энергосберегающих технологий	978
Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
O'zbekiston tibbiyot muassasalarida moliyaviy resurslardan foydalanishda xorijiy tajribalarni qo'llash.....	982
Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich	



“HUDUDLARDA SUG‘URTAGA BO‘LGAN TALABNING EKONOMETRIK TAHLILI”

Bekberganova Mohira Ravshonbekovna

O‘zbekiston Milliy universiteti
Ekonometrika va iqtisodiy modellash
kafedrasida tayanch doktoranti
E-mail: mohira96@inbox.ru
ORCID: 0009-0002-6739-3593



Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududlarida sug‘urtaga bo‘lgan talabning asosiy omillari panel ma‘lumotlar asosida ekonometrik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda 2000–2024-yillar davomida 14 ta hudud bo‘yicha yig‘ilgan ma‘lumotlar asosida panel regressiya modellari – doimiy ta’sirli (Fixed Effects), tasodifiy ta’sirli (Random Effects) va ushbu ikki modeldan qaysi biri mosligini aniqlash uchun Hausman testi metodologiyasi qo‘llanildi.

Kalit so‘zlar: sug‘urtaga bo‘lgan talab, panel ma‘lumotlar, ekonometrik tahlil, doimiy ta’sirli model, tasodifiy ta’sirli model, yalpi hududiy mahsulot, regressiya tahlili.

Abstract: This article analyzes the main factors of insurance demand in the regions of the republic of Uzbekistan based on panel data. the study used the methodology of determining panel regression models - fixed effects, random effects and a random effects model using the hausman test - based on data collected in 14 regions for 2010–2024.

Key words: insurance demand, panel data, econometric analysis, fixed effects model, random effects model, gross regional product, regression analysis.

Аннотация: В статье анализируются основные факторы спроса на страхование в регионах республики узбекистан с использованием панельных данных. в исследовании использовались модели панельной регрессии – фиксированные эффекты, случайные эффекты и тест хаусмана для определения модели случайных эффектов – на основе данных, собранных в 14 регионах с 2010 по 2024 год.

Ключевые слова: спрос на страхование, панельные данные, эконометрический анализ, модель с фиксированными эффектами, модель со случайными эффектами, валовой региональный продукт, регрессионный анализ.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorini rivojlantirish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash va aholining sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini oshirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Sug‘urta bozori mamlakat iqtisodiy tizimida muhim moliyaviy institut sifatida faoliyat yuritib, iqtisodiy xavflarni boshqarish hamda aholi va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy himoya qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Sug‘urta bozori iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy xavfsizlikni ta‘minlovchi asosiy bo‘g‘inlardan biri hisoblanadi. Aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talab ijtimoiy-iqtisodiy holat bilan bevosita bog‘liq. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda sug‘urta bozori jadal rivojlanayotgan bo‘lsa-da, uning hududlar kesimida notekis shakllanayotgani kuzatilmoqda. Ushbu maqolada hududlarda sug‘urtaga bo‘lgan talabni shakllantiruvchi omillarni aniqlash maqsadida ekonometrik tahlil o‘tkazildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatda sug‘urta bozori rivojlanishiga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy olimlarning tadqiqotlarini o‘rganish jarayonida, ekonometrik modellash uchun qaysi omillar muhim ahamiyat kasb etishi aniqlab olindi.

Ko‘plab ilmiy adabiyotlarda sug‘urta bozorining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar keng tahlil qilingan. Bu omillar turli nuqtayi nazardan, jumladan, mikro- va makroiqtisodiy mezonlar asosida o‘rganilgan. Arena (2008), Li va boshqalar (2006), Anghelache va boshqalar (2019) tomonidan turli mamlakatlar ma‘lumotlari asosida sug‘urta rivoji bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tadqiq qilingan¹.

¹ Arena M. (2008). Does insurance market activity promote economic growth? A cross-country study for industrialized and developing



Xong va boshqalar (2014), Tang (2015), Gao (2018) hamda Vang (2019) Xitoyda sug'urta bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabatlarni empirik tahlil qilishgan. Ularning tadqiqotlari iqtisodiy o'sish sug'urtaga bo'lgan talabga bevosita ta'sir ko'rsatishini va aholi moliyaviy holatining sug'urta xizmatlarini xarid qilish qobiliyatiga bog'liqligini isbotlagan².

F. J. Zhou (2014), Y. M. Yuan (2015), R. Yang va J. M. Zhu (2019) esa pul-kredit siyosatining sug'urta bozoriga ta'sirini tahlil qilgan. Ular pul-kredit siyosatining turli shakllari sug'urta sohasining rivojlanishiga differensial ta'sir ko'rsatishini aniqlashgan³.

Xu va Chen (2012), Vang (2019), Paunika va boshqalar (2019) inflyatsiya darajasi va inflyatsion kutilmalarning sug'urta bozoriga, ayniqsa uzoq muddatli sug'urtalarga bo'lgan talabga salbiy ta'siri borligini ko'rsatgan. Ular inflyatsiyani sug'urta sanoati rivojining cheklovchi omili sifatida tahlil qilishgan⁴.

Tian (2017), Fu va Vang (2017), Vang (2019) tadqiqotlari esa Xitoy sug'urta sanoatining rivojlanish omillarini empirik jihatdan o'rgangan. Ular milliy jamg'armalar va asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning ushbu soha rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar⁵.

Shuningdek, X. L. Zhou va J. L. Guo (2012), Tian (2017) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'urta xarajatlari bilan foiz stavkalari o'rtasida aniq teskari korrelyatsiya mavjudligi isbotlangan⁶.

S. Saksanova, E. Prokopjeva va O. Adlere tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolada o'tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlarda sug'urta hajmining hududiy rivojlanish omillari bilan bog'liqligi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan sug'urta bozori o'rtasidagi o'zaro aloqalar tahlil qilingan⁷.

V. Ahter, V. Pappas va S. Umer Khan'larning ilmiy izlanishlari Osiyo va OECD mamlakatlarida sug'urta talabining iqtisodiy hamda demografik omillar bilan bog'liqligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ta'lim darajasi, daromad va aholining demografik tarkibi sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabga sezilarli ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan⁸.

E. Satrovik va A. Musliya o'zlarining tadqiqotlarida 150 ta mamlakat ma'lumotlariga asoslangan ko'p o'zgaruvchili tahlil orqali hayot sug'urtasiga bo'lgan talabning iqtisodiy hamda demografik determinantlarini aniqlaganlar⁹.

C. Blier-Vong'ning 2021-yildagi ilmiy maqolasida esa sug'urta tariflarini hududiy xususiyatlarga asoslangan holda modellashtrish, tariflarni belgilash mexanizmlari va usullari haqida amaliy va nazariy tahlillar keltirilgan¹⁰.

Sug'urta munosabatlari maqsadli fondlarni shakllantirish bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, sug'urta bozori iqtisodiy tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv Ye. Reytmann va A. A. Gvozdenko tomonidan shakllantirilgan nazariy asoslarda ifoda etilgan¹¹.

countries. *Journal of Risk and Insurance*, 75(4), 921–946.

Yuanyuan Li & Bertrand Wigniolle. Endogenous information revelation in a competitive credit market and credit crunch. 2016.

Anghelache C., Anghel M. G., Capusneanu S., & Topor D. (2019). Econometric model used for GDP correlation analysis and economic aggregates. *Economic Computation and Economic Cybernetics Studies and Research*, 53(1), 183–197.

2 Hong M., Huang H. Z. & Jiao J. Y. (2014). An empirical research on factors influencing the growth of Chinese insurance industry. *Insurance Studies*, 2, 11–22.

Tang X.T. (2015). Econometrical analysis of the influence factors of Chinese insurance industry development [PhD thesis]. Dongbei University of Finance and Economics.

Gao X.J. (2018). Research on the relationship between insurance development and economic growth in China. *China Collective Economy*, 3, 20–22.

Wang X. (2019). An empirical analysis of insurance and macroeconomics in China. *Marketing Research*, 12, 24–26.

3 Zhou F.J. (2014). An analysis on the relation between property insurance premium income and money supply in China. *Business*, 16, Article 89.

Yuan Y.M. (2015). An analysis on the influence of China's monetary policy on insurance industry. *Fujian Finance*, 7, 27–30.

Yang R. & Zhu J.M. (2019). An empirical study on monetary policy and insurance development based on VAR model. *Journal of Liaoning University of Technology (Social Science Edition)*, 21(3), 13–16.

4 Hu L. & Chen J. (2012). An analysis on the influence of inflation on the development of insurance industry. *Insurance Studies*, 1, 30–35

Wang X. (2019). An empirical analysis of insurance and macroeconomics in China. *Marketing Research*, 12, 24–26

Paunica M., Manole A., Motofei C. & Tanase G.I. (2019). The impact of remittances on GDP and household consumption. An European union countries analysis. *Economic Computation and Economic Cybernetics Studies and Research*, 53(4), 97–114

5 Tian X.Y. (2017). The influential factors analysis and the time series analysis of the Chinese insurance industry development [PhD thesis]. Beijing University of Technology.

6 Zhou H.L. & Guo J.L. (2012). Analysis on affecting factors of China's life insurance product supply. *Insurance Studies*, 11, 62–74.

Tian X.Y. (2017). The influential factors analysis and the time series analysis of the Chinese insurance industry development [PhD thesis]. Beijing University of Technology.

7 Saksonova S., Prokopjeva E., Adlere O. "Assessment of the Dependence of Insurance Volumes on Various Socio-Economic Factors of Regional Development in Countries with a Transitive Economy" 2023

8 Akhter W., Pappas V., Umer Khan S. "Insurance Demand in Emerging Asian and OECD Countries: A Comparative Perspective" 2020

9 Satrovik E., Musliya A. "Economic and Demographic Determinants of the Demand for Life Insurance: Multivariate Analysis" 2018.

10 Blier-Wong Ch. "Geographic Ratemaking with Spatial Embeddings" 2021

11 Страхование в России 2004. Ежегодное издание Всероссийского союза страховщиков. Изд-во «Дизайн», 2004-98 с.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni baholash jarayonida demografik ko'rsatkichlar tahlil qilindi. To'plangan ma'lumotlar asosida statistik tahlil, ekonometrik modellashirish va tizimli yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sug'urta bozorining rivojlanish darajasini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bu – yalpi sug'urta mukofoti hisoblanadi. Shu bilan birga, hududlar kesimidagi sug'urta mukofotlari va ularga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik model orqali chuqur tahlil qilish zarurati mavjud. Hududiy sug'urta bozorlari holatini baholash, ularning vaqt mobaynidagi dinamikasi va asosiy iqtisodiy omillar ta'sirida yuz berayotgan o'zgarishlarini aniqlash maqsadida quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi: yalpi hududiy mahsulot (GDP), aholi daromadlari (Income), sug'urta mukofotlari hajmi (Premium), aholi soni (Population) hamda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi (Invest).

Tahlil uchun 2001–2024-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar asos qilib olindi va ushbu ma'lumotlar asosida hududiy sug'urta bozorlari ekonometrik modellashirildi.

1-rasmda keltirilgan grafik matritsali tarqoqlik diagrammasi (scatterplot matrix) bo'lib, u quyidagi o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni vizual ko'rsatadi:

Premium – sug'urta mukofoti hajmi

GDP – yalpi hududiy mahsulot

Invest – asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Population – aholi soni

Income – aholi daromadlari

Premium-GDP, Premium-Invest, Premium-Population va Premium-Income juftliklarida aniq ijobiy bog'liqlik mavjudligi kuzatiladi. Bu esa shuni bildiradiki, ushbu o'zgaruvchilardagi ortishlar sug'urta mukofotlari hajmiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, GDP, Income, Population va Invest o'zgaruvchilari o'zaro kuchli bog'langan bo'lib, matritsa kvadrantlarida to'g'ri chiziqqa yaqin tarqoqlik kuzatiladi. Bu esa potensial multikollinearlik muammasi mavjud bo'lishi mumkinligidan darak beradi (1-rasm).



1-rasm. Hududlar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy omillar va yalpi sug'urta mukofoti o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik grafigi¹²

Гвозденко А.А. Основы страхования. М.: Финансы и статистика, 1998. - 320 с.

12 Muallif tomonidan Stata dasturida olingan natija



Mavjud ma'lumotlar asosida doimiy ta'sirlar modeli (Fixed Effects) hamda tasodifiy ta'sirlar modeli (Random Effects) tuzildi. 1-jadvalda ushbu ikki model bo'yicha olingan natijalar – tasodifiy ta'sirlar va qat'iy (doimiy) ta'sirlar modelining baholash ko'rsatkichlari keltirilgan (1-jadval).

1-jadval.¹³ Tasodifiy ta'sir va qat'iy ta'sir natijalari.

	Tasodifiy ta'sir In_Premium	Qat'iy ta'sir In_Premium
	Coef./t-stats.	Coef./t-stats.
ln_population	-0.147*** (0.062)	0.1543*** (0.8969)
ln_income	0.48934*** (0.1053)	0.9808*** (0.1170)
ln_invest	0.4001*** (0.0884)	0.2286*** (0.0880)
ln_gdp	0.5224 (0.0946)	0.8144** (0.1032)
cons	-0.9333*** (0.3436)	-8.1809*** (-0.8970)
N	336	336

Tasodifiy ta'sir modelining tenglamasi:

$$\ln(\text{premium}) = -0,9333 + 0,5224 \cdot \ln(\text{gdp}) - 0,147 \cdot \ln(\text{population}) + 0,4893 \cdot \ln(\text{income}) + 0,4001 \cdot \ln(\text{invest})$$

Qat'iy ta'sir modelining tenglamasi:

$$\ln(\text{premium}) = -8,1809 + 0,8144 \cdot \ln(\text{gdp}) + 0,1543 \cdot \ln(\text{population}) + 0,9808 \cdot \ln(\text{income}) + 0,2286 \cdot \ln(\text{invest})$$

Yuqoridagi jadvalga ko'ra, ln_income (aholi daromadlari) o'zgaruvchisi har ikkala modelda ham sug'urta mukofotlariga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, qat'iy ta'sirlar modelida bu ta'sir kuchliroq bo'lib, koeffitsient 0.98 ga teng. Bu natija daromadlarning vaqt bo'yicha o'zgarishi sug'urta faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir qilayotganini anglatadi.

ln_invest (asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar) o'zgaruvchisi ham har ikki modelda statistik ahamiyatli va ijobiy ta'sirga ega. Tasodifiy ta'sirlar modelida bu ta'sir kuchliroq (0.40) bo'lsa, qat'iy ta'sirlar modelida 0.22 ga teng.

ln_population (aholi soni) model tanlashda muhim indikator hisoblanadi. Qat'iy ta'sirlar modelida aholi sonining ta'siri ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bo'lsa, tasodifiy ta'sirlar modelida bu o'zgaruvchi salbiy ta'sir ko'rsatmoqda va u ham statistik ahamiyatga ega. Bu holat izohli o'zgaruvchilar bilan xatoliklar orasida korrelyatsiya mavjud bo'lishi ehtimolini ko'rsatadi. Shu sababli, ushbu qarama-qarshi koeffitsientlar mavjudligida Hausman testini o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

ln_gdp (hududiy YAIM) o'zgaruvchisi qat'iy ta'sirlar modelida ijobiy va statistik ahamiyatli ta'sirga ega, tasodifiy ta'sirlar modelida esa statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lib chiqdi. Bu esa YAIMdagi vaqt bo'yicha o'zgarishlar sug'urta mukofotlariga ta'sir qilayotganini ko'rsatadi, biroq hududlararo farqlarda bu ta'sir sezilmayapti.

Intercept (constanta) – qat'iy ta'sirlar modelida juda katta salbiy qiymatga ega bo'lib, statistik jihatdan ahamiyatli. Bu natija har bir ob'yektga (ya'ni hududga) xos o'zgarmas xususiyatlarning modelda muhim rol o'ynayotganini anglatadi.

Agar izohli o'zgaruvchilar bilan ob'yektga xos xatoliklar o'rtasida korrelyatsiya mavjud deb faraz qilinsa, qat'iy ta'sirlar modeli afzal hisoblanadi. Ayniqsa, ln_population o'zgaruvchisining ikki modelda ham qarama-qarshi yo'nalishdagi koeffitsientlarga ega bo'lishi bu ehtimolning yuqoriligidan dalolat beradi. Shu sababli, Hausman testi yordamida qaysi model (qat'iy yoki tasodifiy) afzal ekanini aniqlanishi lozim.

F-test natijalariga ko'ra, model umumiy statistik ahamiyatga ega. Student t-test natijalari esa alohida parametrlarning ahamiyatli ekanini ko'rsatmoqda.

13 Muallif tomonidan tuzilgan



Biroq, agar model xatoliklari o'zaro bog'liqlikka ega bo'lsa va bu holat natijalarning ishonchligini buzsa, qat'iy ta'sirlar modeli bu sharoitda mos kelmasligi mumkin. Bunday vaziyatda panel ma'lumotlar asosida bog'liqlikni yanada ishonchli modellashtirish uchun muqobil effektlar (masalan, birlashtirilgan yoki GLS yondashuvi) ko'rib chiqilishi mumkin. Har holda, Hausman testi qat'iy va tasodifiy modellarni solishtirishda asosiy vosita sifatida qo'llanadi.

Hausman testini o'tkazishda nol gipoteza – tasodifiy ta'sirlar modeli afzal ekanini bildiradi. Agar test natijalari bu gipotezani rad etsa, demak alternativ gipoteza – qat'iy ta'sirlar modeli ustun ekani qabul qilinadi.

: Random effect model

: Fixed effect model

Null gipoteza model xatoligining regressor bilan korrelyatsiyasi mavjud emasligini bildirsa, alternativ gipoteza aksincha.

2-rasmda STATA yordamida olingan Hausman testi natijalari berilgan (2-rasm).

```
. hausman eq_fe eq_re
```

	Coefficients		(b-B) Difference	sqrt(diag(V_b-V_B)) Std. err.
	(b) eq_fe	(B) eq_re		
ln_GDP	.8143624	.5224393	.2919231	.0410839
ln_Invest	.2285811	.4001418	-.1715607	.
ln_income	.9808005	.4893439	.4914566	.0511229
ln_populat~n	.1542874	-.1379883	.2922757	.0185571

b = Consistent under H0 and Ha; obtained from xtreg.

B = Inconsistent under Ha, efficient under H0; obtained from xtreg.

Test of H0: Difference in coefficients not systematic

$$\chi^2(4) = (b-B)'[(V_b-V_B)^{-1}](b-B)$$

$$= 87.67$$

Prob > chi2 = 0.0000

(V b-V B is not positive definite)

2-rasm. Hausman testi natijasi¹⁴

Hausman testi natijalariga ko'ra, p-value = 0.0000 < 0.05 bo'lib, bu nol gipotezani (H_0) rad etish uchun yetarli asos hisoblanadi. Bu natija qat'iy ta'sirlar (Fixed Effects) va tasodifiy ta'sirlar (Random Effects) modellarining natijalari o'rtasida sezilarli farq mavjudligini ko'rsatadi va ushbu farq tizimli xarakterga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Shu asosda, modeldagi izohli o'zgaruvchilar bilan individual xatoliklar o'rtasida korrelyatsiya mavjud degan faraz kuchli statistik asosga ega bo'ladi. Bu esa tasodifiy ta'sirlar modelini qo'llash uchun zarur bo'lgan mustaqillik sharti buzilganini bildiradi.

Shunday qilib, mavjud panel ma'lumotlari uchun qat'iy ta'sirlar modeli (Fixed Effects) tanlanishi ilmiy jihatdan asosli va uslubiy jihatdan to'g'ri qaror hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Modeldagi Student (t) statistikasi natijalari asosida quyidagi xulosa chiqarish mumkin: hududiy yalpi mahsulot (YAIM), aholi soni, daromad darajasi va asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi sug'urta mukofotlari hajmiga sezilarli va ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ushbu omillar va sug'urta faoliyati o'rtasida barqaror bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Panel ma'lumotlari asosida qurilgan regressiya modellarini tahlil qilish natijasida, tanlangan omillar o'rtasidagi munosabatlarni eng aniq ifodalab beruvchi model sifatida qat'iy ta'sirlar modeli (Fixed Effects) tanlab olindi. Hausman testi natijalari bu modelning adekvatligi va izohli o'zgaruvchilar bilan individual xususiyatlar o'rtasidagi tizimli bog'liqlikni ishonchli tarzda namoyon etishini ko'rsatdi. Shu bois, kelgusidagi prognozlash bosqichida aynan qat'iy ta'sir modeli asosiy model sifatida qo'llanilishi rejalashtirilmoqda.

14 Muallif tomonidan Stata dasturida olingan natija



Hududlarda sug'urtaga bo'lgan talabning shakllanishi bir nechta iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni inobatga olgan holda samarali sug'urta siyosatini yuritish zarur. Xususan:

- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni oshirish orqali sug'urta madaniyatini rivojlantirish mumkin;
- hududlarda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish sug'urtaning qamrov doirasini kengaytiradi;
- sug'urta kompaniyalari o'z mahsulotlarini hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda diversifikatsiya qilishi lozim.

Bu omillarni hisobga olgan holda, sug'urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish va iqtisodiy siyosatni sug'urta talabi bilan uyg'unlashtirish istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qoralishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Arena M. (2008). Does insurance market activity promote economic growth? A cross-country study for industrialized and developing countries. *Journal of Risk and Insurance*, 75(4), 921–946
2. Yuanyuan Li & Bertrand Wigniolle. Endogenous information revelation in a competitive credit market and credit crunch. 2016
3. Anghelache C., Anghel M. G., Capusneanu S., & Topor D. (2019). Econometric model used for GDP correlation analysis and economic aggregates. *Economic Computation and Economic Cybernetics Studies and Research*, 53(1), 183–197
4. Hong M., Huang H. Z. & Jiao J. Y. (2014). An empirical research on factors influencing the growth of Chinese insurance industry. *Insurance Studies*, 2, 11–22
5. Tang X.T. (2015). Econometrical analysis of the influence factors of Chinese insurance industry development [PhD thesis]. Dongbei University of Finance and Economics.
6. Gao X.J. (2018). Research on the relationship between insurance development and economic growth in China. *China Collective Economy*, 3, 20–22
7. Wang X. (2019). An empirical analysis of insurance and macroeconomics in China. *Marketing Research*, 12, 24–26
8. Zhou F.J. (2014). An analysis on the relation between property insurance premium income and money supply in China. *Business*, 16, Article 89.
9. Yuan Y.M. (2015). An analysis on the influence of China's monetary policy on insurance industry. *Fujian Finance*, 7, 27–30.
10. Yang R. & Zhu J.M. (2019). An empirical study on monetary policy and insurance development based on VAR model. *Journal of Liaoning University of Technology (Social Science Edition)*, 21(3), 13–16.
11. Hu L. & Chen J. (2012). An analysis on the influence of inflation on the development of insurance industry. *Insurance Studies*, 1, 30–35
12. Wang X. (2019). An empirical analysis of insurance and macroeconomics in China. *Marketing Research*, 12, 24–26
13. Paunica M., Manole A., Motofei C. & Tanase G.I. (2019). The impact of remittances on GDP and household consumption. An European union countries analysis. *Economic Computation and Economic Cybernetics Studies and Research*, 53(4), 97–114
14. Tian X.Y. (2017). The influential factors analysis and the time series analysis of the Chinese insurance industry development [PhD thesis]. Beijing University of Technology.
15. Zhou H.L. & Guo J.L. (2012). Analysis on affecting factors of China's life insurance product supply. *Insurance Studies*, 11, 62–74.
16. Tian X.Y. (2017). The influential factors analysis and the time series analysis of the Chinese insurance industry development [PhD thesis]. Beijing University of Technology.
17. Saksonova S., Prokopjeva E., Adlere O. "Assessment of the Dependence of Insurance Volumes on Various Socio-Economic Factors of Regional Development in Countries with a Transitive Economy" 2023
18. Akhter W., Pappas V., Umer Khan S. "Insurance Demand in Emerging Asian and OECD Countries: A Comparative Perspective" 2020
19. Satrovik E., Musliya A. "Economic and Demographic Determinants of the Demand for Life Insurance: Multivariate Analysis" 2018
20. Blier-Wong Ch. "Geographic Ratemaking with Spatial Embeddings" 2021
21. Страхование в России 2004. Ежегодное издание Всероссийского союза страховщиков. Изд-во «Дизайн», 2004-98 с.
22. Гвозденко А.А. Основы страхования. М.: Финансы и статистика, 1998. - 320 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
